

**FIKR VA SO'Z ERKINLIGI TUSHUNCHASI: TARIXIY-
EVOLYUTSION RIVOJLANISH**

Tifliyeva Gulhayo

Toshkent davlat yuridik universiteti Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti

Ommaviy axborot vositalari huquqi yo'nalishi talabasi

E-mail: tifliyevag@gmail.com

Annotatsiya: *ushbu tadqiqotda fikr va so'z erkinligi tushunchasining davrlar holatiga ko'ra talqini tahlil qilinadi hamda ushbu tushunchaning oddiy falsafiy ma'nodan hozirgi inson huquqlarining eng qimmatlilaridan biriga aylanguniga qadar bo'lgan davr mobaynida qanday munosabatlarga duch kelgani, tegishli davrlarda buyuk olimlarning ushbu tushunchaga nisbatan fikrlari va jamiyatning rivojida qanchalik ahamiyatli ekani to'g'risida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *fikr va so'z erkinligi, antik davr, o'rta asrlar, ma'rifatparvarlik davri, falsafiy asos, huquqiy asos, diniy erkinlik.*

**КОНЦЕПЦИЯ СВОБОДЫ МЫСЛИ И СЛОВА: ИСТОРИКО-
ЭВОЛЮЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ**

Тифлиева Гульхаё

Ташкентский государственный юридический университет, факультет
магистратуры и заочного обучения

Студент факультета права СМИ

Электронная почта: tifliyevag@gmail.com

Аннотация: *в данном исследовании анализируется интерпретация концепции свободы мысли и выражения мнений с течением времени, а также обсуждаются связи, с которыми столкнулась эта*

концепция за этот период, от ее простого философского значения до ее нынешнего статуса одного из самых ценных прав человека, взгляды великих ученых на эту концепцию в соответствующие периоды и ее значение в развитии общества.

Ключевые слова: *свобода мысли и слова, античность, средние века, эпоха просвещения, философская основа, правовая основа, религиозная свобода.*

**THE CONCEPT OF FREEDOM OF THOUGHT AND SPEECH:
HISTORICAL-EVOLUTIONARY DEVELOPMENT**

Tifliyeva Gulhayo

Student of the Department of Mass Media Law

Of the Faculty of Master's and Correspondence Studies

Tashkent State University of Law

E-mail: tifliyevag@gmail.com

Abstract: *this study analyzes the interpretation of the concept of freedom of thought and speech according to the state of the times and discusses the relations that this concept has encountered during the period from its simple philosophical meaning to its transformation into one of the most valuable human rights today, the opinions of great scientists on this concept in the relevant periods, and its significance in the development of society.*

Keywords: *freedom of thought and expression, antiquity, the middle ages, the age of enlightenment, philosophical basis, legal basis, religious freedom*

Fikr va soʻz erkinligi insoniyat tarixidagi eng qadimiy huquqlardan sanalib, hozirgi kunga qadar oʻz ahamiyatini yoʻqotgani yoʻq va hatto, bu mavzuning dolzarbligi kundan kunga ortsa ortyaptiki, kamaymayapti. Ayniqsa, hozirgi globallashuv va raqamli texnologiyalar davrida ushbu huquqning zamonaviy shakllarini internet tarmoqlari orqali fikr bildirish, blog yuritish va ijtimoiy tarmoqlardagi bahs-munozaralarda bevosita qatnashishda koʻrishimiz mumkin. Shu bilan bir qatorda, fikr va soʻz erkinligi shakllanishi jarayonida antik davr falsafasi, oʻrta asrlardagi mavjud diniy taqiqlar va maʼrifatparvarlik davrining konstitutsiyaviy tajribalari ham muhim rol oʻynagani tarixdan bizga maʼlum. Ushbu tadqiqot davomida fikr soʻz erkinligi tushunchasining turli davrlardagi evolutsion rivoji va shakllanib borish jarayonlari haqida soʻz boradi.¹

1. Antik davr — fikr va soʻz erkinligiga oid huquqiy asoslar anchayin zaif boʻlishiga qaramay, hech boʻlmaganda falsafiy tomonlama ushbu tushuncha mavjud boʻlgan davr sanaladi.

Qadimgi Hindistonda ushbu tushunchaning mavjudligi isbotini bizgacha yetib kelgan vedalar va upanishadlar orqali koʻrishimiz mumkin. Vedalar va upanishadlar – diniy mazmundagi adabiyotlar. Baʼzi taxminlarga koʻra, deyarli toʻqqiz asr (miloddan avvalgi 1500–600-yillar) davomida Hindiston yarim orolida yashab kelgan qadimgi xalq va elatlar tomonidan yaratilgan. Ushbu adabiyotlar diniy-falsafiy boʻlganligi sababli fikr va soʻz erkinligi aynan huquqiy asosda tilga olinmagan boʻlsa-da, umumiy holatda insonlardagi ruhiy erkinlik toʻgʻrisida soʻz

¹ David Dusto "Index Librorum Prohibitorum: The History, Philosophy, and Impact of the Index of Prohibited Books" 07 August 2008.

borgan va bu uzoq o'tgan davrda ham fikr va so'z erkinligi tushunchasi umumiy tushuncha sifatida mavjud bo'lganligini anglatadi.

Qadimgi Eronda shoh (558-530) Kir II Buyuk tomonidan loy silindrga o'yib yozishga buyurilgan Kir manifestida shohning g'alabalari va yaxshi ishlari ro'yxati mixxat yozuvida keltirilgan va ushbu artefakt 1879-yilda Bobilda olib borilgan qazishma ishlari jarayonida topilgan va Britaniya muzeyiga saqlash uchun yuborilgan. Ushbu silindrga Eronning so'nggi shohi – Muhammad Rizo Pahlaviy tomonidan 1960-yilda inson huquqlarining birinchi deklaratsiyasi deya berilgan ta'rifdan keyin keng ommaga ma'lum bo'ldi. Bizga ma'lumki, fikr va so'z erkinligi insonlarning ajralmas huquqi sanaladi va aynan Kir manifestida ham inson huquqlariga dastlabki qarashlarning mavjudligi uni mavzuga manba sifatida olishni yoqlaydi. Xususan, ushbu manifestda shoh Kirning qullikni bekor qilish va e'tiqod erkinligi tarafdori bo'lganini ko'rish mumkin. Yuqorida sanalgan ikki holat (qullikni yo'qotish va diniy erkinlik) ham fikr va so'z erkinligi huquqining qisman bo'lsa-da himoyasini anglatadi. Negaki, qullikdan ozod bo'lish insonga hech bo'lmaganda o'z hayoti haqida (qayerda yashash, qay yo'sinda yashash, nima bilan shug'ullanish va hk.) erkin fikrlay olish huquqini bergan.

2. O'rta asrlar (V–XV asr). Bu davrda fikr erkinligi huquqiga Yevropa misolida nazar tashlaydigan bo'lsak, fikr erkinligining inqirozini ko'rish mumkin. Yevropada Katolik cherkovining kuchi qonun bilan tenglashgan hamda fikr erkinligi ustidan to'liq nazorat o'rnatgan. Ushbu nazorat "Index Librorum Prohibitorum" ya'ni, "Taqiqlangan kitoblar ro'yxati" bilan amalga oshirilgan. "Birinchi rasmiy Index Librorum Prohibitorum (Taqiqlangan kitoblar ro'yxati) 1557-yilda paydo bo'lgan bo'lib, u Papa Pavel IV topshirig'iga binoan "Rim

inkvizitsiyasining muqaddas kongregatsiyasi” tomonidan tuzilgan (Dee & Sheridan, 2003, 390-bet). Biroq, ushbu birinchi urinish Pavel IV tomonidan ma’qullanmagan va hech qachon nashr etilmagan. Inkvizitsiya 1559-yilda ikkinchi, tasdiqlangan versiyasini e’lon qilgan bo’lib, unda protestant ilohiyotshunoslari Martin Lyuter va Jon Kalvin kabi mualliflarning asarlari, shuningdek, dastlab cherkov tomonidan e’tirof etilgan, biroq keyinchalik Anglikan cherkovini tashkil etgani uchun cherkovdan chiqarilgan Angliya qiroli Genrix VIII ning asarlari kiritilgan edi. 1559-yilgi ro’yxatda shuningdek, foydalanishga ruxsat etilgan Injil tarjimalari va Yangi Ahddagi versiyalar aniq belgilab qo’yilgan edi (Index, 1980, 28–30-betlar). Islomning Qur’oni karimi hamda yahudiylarning Talmudi ham ushbu ro’yxatga kiritilgan edi." Shuningdek, ommani erkin fikrlashdan to’sib turuvchi yana bir mexanizm joriy qilingan va ushbu mexanizm – “Inkvizitsiya sudi” bo’lgan. Ushbu sud erkin diniy e’tiqod yoki qarashga ega bo’lganlarni tergov qilgan va jazolagan, hatto ushbu huquqiy institutlar haqida fikr bildirish jinoyat deb kvalifikatsiyalangan. Henry Charles Lea’ning "A History of the Inquisition of the Middle Ages" asarida inkvizitsiyaning dastlabki shakllanishi XIII asrda g’arbiy Yevropada, ayniqsa Fransiya va Italiyada katolik cherkovi tomonidan bid’atga qarshi kurashish ehtiyoji bilan bog’langan. Inkvizitsiya nasroniylikning sud tizimiga cherkovning ambitsiyasi yoki fanatizmi tomonidan ixtiro qilinib kiritilgan tashkilot emas edi. U o’rta asr nasroniy jamiyatining o’ziga xos kuchlarining muqarrar natijasi edi. Ushbu institut 1478-yilda o’zining eng yuqori darajasiga chiqqan bo’lib, o’sha davrda ispan inkvizitsiyasiga asos solingan. Ispaniya inkvizitsiyasi (to’liq nomi Muqaddas inkvizitsiya mahkamasi tribunali, ispancha: Tribunal del Santo Oficio de la Inquisición) – 1478-yilda Aragon qiroli Ferdinand

II va Kastiliya qirolchasi Izabella I tomonidan tuzilgan maxsus tergov va sud organi. Umumiy hisobda 1480—1530-yillar davomida jami Ispaniyada 2mingga yaqin insonlar inkvizitsiya bilan o'limga hukm qilinadi va bu tarixda inkvizitsiyaning eng cho'qqiga chiqqan nuqtasi sifatida qolgan.²

3. Ma'rifatparvarlik davri insoniyat ongidagi o'sish va erkinlik g'oyalarining yoyilishi bilan boshqa davrlardan farqlidir. Xususan, ushbu davr Yevropasida monarxiyaga qarshi harakatlarning avj olishi hamda inson huquqlarining e'tirofi fikr va so'z erkinligi masalasini ijtimoiy-siyosiy hayotning markaziga aylantirdi. Shunday ekan, quyida ushbu davrda fikr va so'z erkinligi tamoyillarining shakllanishi hamda hozirgi mavjud holatga qanchalik ta'sir o'tkazgani tahlil qilinadi. Avvalo, ushbu davr nega ma'rifatparvarlik davri deb nomlangani, qaysi asrdan boshlangani haqida qisqacha bayon qilamiz. Ma'rifatparvarlik XVII-XVIII asrda Yevropada yuzaga kelgan harakat bo'lib, ushbu harakat namoyondalari tafakkur, aql-idrokni jamiyat taraqqiyotining asosi – poydevori deb hisoblashgan. Ba'zilar Ma'rifat davri boshlanishini 1637-yilda Rene Dekartning “Uslub haqida mushohadalar” asari nashr etilishi bilan bog'laydi. Ushbu asarda uning mashhur – “Fikrlayapman, demak mavjudman” (Cogito, ergo sum) hikmatli so'zi aks etgan. Boshqalar ilmiy inqilobning cho'qqisi va Ma'rifatning boshlanishini Isaak Nyutonning “Negizlar” (1687-yil) kitobining nashr etilishi bilan belgilaydi. Aynan Rene Dekartning "Fikrlayapman, demak mavjudman" fikri, fikr va so'z erkinligiga bo'lgan ijobiy qarashning o'sha davrda o'sganini belgilab bera olishda muhim rol o'ynaydi. Ya'ni Rene Dekart inson mavjud bo'lishi uchun, erkin fikrlash, fikrlay olish, fikrini bayon qila olish

² O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, -T.: davlat ilmiy nashriyoti, 2000-2005.

qanchalik muhim ekanligini anglatishga uringan. Shuningdek, o'sha davrning yetakchi vakillari safiga Jon Lokk, Volter, Jan-Jak Russo va Sharl Lui Monteskelarni ham qo'shish mumkin.³

Yuqorida Yevropa ma'rifatparparlik davri olimlarining fikr va so'z erkinligiga qaratilgan g'oyalari tegishli adabiyotlarda o'rganildi va ushbu g'oyalar insonlarning tabiiy huquqlari uchun falsafiy asos yarata olgan. Endi esa o'sha davrda fikr va so'z erkinligining qonunchilikdagi dastlabki himoyasi, ya'ni huquqiy asoslari to'g'risida so'z boradi.

1. 1689-yilda qabul qilingan Angliya huquqlari to'g'risidagi qonun bo'lib, "Parlamentdagi so'z va munozaralar yoki jarayonlar hech qanday sud yoki joyda savol ostiga olinmasligi kerak", mazmunidagi tamoyilning hujjatga kiritilishi fikr va so'z erkinligi tamoyilini mustahkamlab, uni konstitutsiyaviy huquq darajasiga olib chiqa olgan.

2. Ma'rifatparvarlik davri huquqiy tizimida fikr va so'z erkinligi haqida bevosita so'z borgan ikkinchi hujjat 1776-yilgi Virginiya huquqlari deklaratsiyasi bo'lib, fikr va so'z erkinligining, umuman, boshqa inson huquqlarining ham huquq sifatida shakllanishida ahamiyati katta bo'lgan hujjatdir. Ushbu qonuniy hujjatni Jorj Meyson yozgan hamda 1776-yil 12-iyunda Virginiya Konstitutsiyaviy Konvensiyasi tomonidan qabul qilingan.

3. Fikr va so'z erkinligini eng qimmatli huquqlardan deb hisoblagan navbatdagi huquqiy asos 1789-yilda Fransiyada qabul qilingan inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasidir.

³ Henry Charles Lea "A History of the Inquisition of the Middle Ages" vol. 1, THE MACMILLAN COMPANY LONDON: MACMILLAN & CO. LTD.1906

4. o'sha davrning yana bir huquqiy hujjatida fikr va so'z erkinligi to'g'risida so'z borgan, to'g'rirog'i ushbu huquq qonuniy himoya ostiga olingan va bu hujjat 1791-yildagi AQSh Konstitutsiyasining birinchi tuzatmasi edi.⁴

Shunday qilib, yuqorida sanab o'tilgan uch davr manbalarining fikr va so'z erkinligi huquqiga bo'lgan munosabatning hozirgi holatida rivojlanishiga qadar bo'lgan muhim tayanch vazifa bajarganligini aytsak ham bo'ladi. Negaki, bizga ma'lum, har qanday huquqning shakllanib rivojlanishida ma'lum davrlarni bosib o'tishi talab etiladi. Fikr va so'z erkinligi huquqining hozirgi qimmatli huquq sifatida tan olinishigacha bo'lgan davr ham uzoq o'tmish, antik davrdan to zamonaviy huquqshunoslikda ushbu huquqning talqin etilishigacha bo'lgan davrlar qamrovini o'z ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, -T.: davlat ilmiy nashriyoti, 2000-2005.
2. David Dusto "Index Librorum Prohibitorum: The History, Philosophy, and Impact of the Index of Prohibited Books" 07 August 2008.
3. Henry Charles Lea "A History of the Inquisition of the Middle Ages" vol. 1, THE MACMILLAN COMPANY LONDON: MACMILLAN & CO. LTD.1906.

⁴ Henry Kamen "The Spanish Inquisition: An Historical Revision" Phoenix Press, 2000-01-01. ISBN 9781842122051.

4. Henry Kamen "The Spanish Inquisition: An Historical Revision" Phoenix Press, 2000-01-01. ISBN 9781842122051.